

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor


Murodov Murodoyberdiyev
2024- yil



Termiz iqtisodiyot va servis universitetida jamoatchilik asosida
faoliyat yuritadigan “Lider qizlar klubi” faoliyatini tashkil etish
yuzasidan

N I Z O M

TERMIZ-2024

Termiz iqtisodiyot va servis universitetida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan “Lider qizlar klubi” faoliyatini tashkil etish yuzasidan

N I Z O M

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom”-Lider qizlar” klubini (keyingi o‘rinlarda- Klub) tashkil etish, uning maqsad va vazifalari hamda ish faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

1.2. “Lider qizlar klubi” respublika va xalqaro miqyosda katta yutuqlarga erishgan, yetakchilik va notiqlik qobiliyatiga ega bo‘lgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshi, jinsi, millati va irqidan qat’iy nazar qizlarni birlashtiradi.

1.3. Klub o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 10-fevraldagi SQ-875-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta’lim muassasasining ichki qarorlari hamda mazkur Nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

II. KLUBNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Klub faoliyatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- universitetdagi faol, tashabbuskor va iqtidorli, zamonaviy bilim va iste’dodiga, yetakchilik qobiliyatiga ega el-yurtimiz uchun fidoyi xotin-qizlarni iste’dodli liderlarga aylantirish, davlat fuqarolik xizmatiga qiziqtirish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlash, ular orasidan davlat fuqarolik xizmati uchun yangi avlod istiqbolli kadrlarini saralash, liderlik (rahbarlik) ko‘nikmalariga o‘rgatish, yuqori malakali yangi avlod xotin-qizlar zaxirasini shakllantirishdan iborat.

- iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ular bilan alohida ishlash, qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va rag‘batlantirish, shuningdek, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashga qaratilgan tizimli o‘qishlarni tashkil etish va kadrlar zaxirasiga kiritish ishlarini takomillashtirish;

- demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish;

- qizlarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish,

ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mas'ul lavozimlariga tavsiya etish.

2.2. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun klub quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- universitet xotin-qizlari orasidan eng faol va iste'dodlilarini aniqlash, ular orasidan istiqbolli va iqtidorlilarini saralab olish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish, klub a'ziligiga qabul qilingan xotin-qizlarni aniq yo'nalish (Zulfiya mukofotining sovrindori, nomdor stipendiyalar va fan olimpiada g'olibi, ilmiy-tadqiqot, innovatsion, IT-texnologiyalari) bo'yicha har tomonlama tayyorlash, o'qitish va malakasini oshirish; ta'lim muassasaning va unga tegishli litsey, maxsus ixtisoslashtirilgan maktab va kasb-hunar texnikumlarining rahbarlik va boshqaruv lavozimlarining zaxirasini yuqori natijalarga erishgan klub a'zolaridan shakllantirish, yuqori natijalarga erishgan klub a'zolarini yuqori tashkilot, vazirliklar, hokimlik va idoralardagi rahbar ayollarga biriktirish;

- klub a'zolarining muammolarini o'rganish, ularni tahlil qilish hamda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tahliliy va tashkiliy choralarni amalga oshirish;

- universitetda gender tenglikni ta'minlashga ko'maklashish.

- faoliyatni amalga oshirishda hududlardagi rahbar ayollar ishtirokida o'quv seminar, trening, anjuman va davra suhbatlar tashkil etish.

III. KLUB TARKIBI VA UNI BOSHQARISH ORGANLARI

3.1. Klub tarkibi Universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasi bilan rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

3.2. Klub sardori (keyingi o'rinlarda sardor deb yuritiladi) Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasiga ko'ra klub a'zolari tomonidan saylanadi.

3.3. Klubning doimiy faoliyati sardor tomonidan boshqariladi.

3.4. Klubning umumiy yig'ilishi o'ying birinchi sanasida SARDOR tashabbusi bilan o'tkaziladi.

- klubning har chorakda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar rejasini hududiy yoshlar ittifoqi raisiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- klub yig'ilishlarini tashkillashtiradi.

IV. Ta'lim muassasalarida iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash tartibi

4.1. "Lider qizlar klubi"ga Universitetga yangi o'quv yilidan boshlab 1-kurs talaba qizlarining iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlari har yili noyabrga qadar oliy ta'lim muassasasining so'roviga asosan ular ta'lim olgan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim maktablari yoki yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

4.2. Universitet yuqori kurslarining talaba qizlari o'rtasida turli ko'rik-tanlovlar va fan olimpiadalari natijalari, professor-o'qituvchilar va guruh murabbiylarining fikr-mulohazalari asosida har yili 1-iyulga qadar ularning iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlari aniqlab boriladi.

V. Iqtidorli yosh xotin-qizlarni iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va ro'yobga chiqarish tartibi

5.1. Universitet talaba-qizlarning iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida "Tengdosh-tengdoshga" yo'nalishidagi to'garaklar hamda talaba-qizlar o'rtasida "Qizlarjon" klubi orqali davra-suhbatlar tashkil etish;

5.2. Universitet talaba qizlari o'rtasida har yili ularning iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlarini ro'yobga chiqarishga hamda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan **“Eng iqtidorli talaba qiz”, “Tashabbuskor talaba qiz”, “Lider talaba qiz”, “Eng yaxshi innovatsion g'oya va loyiha muallifi”** tanlovlarini o'tkazish.

5.3. Universitetda “Lider qizlar” klubi a'zolaridan zaxira kadrlar tarkibini shakllantirish hamda iqtidorli yosh xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish.

VI. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Klubning moddiy-texnik ta'minoti ta'lim muassasasi tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

6.2. Klub faoliyati ustidan nazoratni ta'lim muassasining rahbari amalga oshiradi.